
"Mash'al" mahallasida ham "Mustaqillik oqshomlari" tadbiri ko'tarinki ruhda o'tdi

Ayni kunlarda shahrimizdagi mahallalar, korxonalar va tashkilotlarda "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida Davlat mustaqilligining 32 yilligi oldidan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Shahrimiz markazidagi "Mash'al" mahalla fuqarolar yig'inida o'tkazilgan tadbirda keksa-nuroniylar, faollar va yoshlar vakillari ishtirok etishdi. Tadbir davomida umidli yoshlar tomonidan madaniy dastur namoyish etildi.

Tadbir davomida so'zga chiqqan mahalla faollari mustaqillik tufayli erishilgan yutuqlar, inson qadrining ulug'lanayotganligi, har bir islohot zamirida inson qadri mujassam ekanligini ta'kidlab o'tishdi.

Tadbir davomida shahar madaniyat bo'limi hamda ijodkor yoshlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar barchaga birdek manzur bo'ldi.

2023-08-30 11:42:38